



MEHNAT BOZORI SHARHI

2025-yil IV chorak

Rezyume

2025-yilda iqtisodiy faollikning yuqori darajada saqlanishi fonida mehnat bozori ko'rsatkichlari yaxshilandi. IV chorakda bo'sh ish o'rinlari soni yillik 15,3 foizga o'sib, xususan, qurilish, umumiy ovqatlanish va ishlab chiqarish sohalarida ishchi kuchiga talab yuqori bo'ldi. Korxonalarning ish o'rinlarini ko'paytirish rejalari mehnat bozorida talabning oshib borayotganini ko'rsatmoqda.

2025-yilda nominal ish haqi 18,9 foizga, real ish haqi 9,3 foizga o'sib, o'rtacha oylik ish haqi 6,4 mln so'mga yetdi. Ish haqining yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida aholi daromadlari va ichki talab oshib, narxlarda oshiruvchi bosim yuzaga kelayotgan bo'lsa-da, mehnat bozori samaradorligining oshishi va ishchi kuchiga bo'lgan talabning nisbatan qondirilishi inflyatsion bosimni ma'lum darajada cheklovchi xususiyat kasb etadi.

Tashqi mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalari hajmi sezilarli oshdi. IV chorakda pul o'tkazmalari yillik 39,8 foizga o'sib, 5 mlrd dollarga yetdi. Migratsiya oqimlarining diversifikatsiyalanishi va ayrim davlatlarda talabning yuqori saqlanishi mehnat resurslari mobilligining (harakatchanligining) oshganini ko'rsatmoqda.


Mehnat resurslari

2025-yilda kuzatilgan yuqori iqtisodiy faollik va ijobiy biznes kayfiyati fonida mehnat bozorida sezilarli kengayish davom etdi.

Markaziy bank kuzatuvlariga ko'ra¹, 2025-yilning IV choragida biznes subyektlari tomonidan e'lon qilinayotgan bo'sh ish o'rinlari soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,3 foizga o'sdi (*ushbu o'sish III chorakda yillik 3,3 foizni tashkil etgandi, 1-rasm*). Bunda, ishchi kuchiga bo'lgan talabning yuqori o'sishi asosan qurilish (*yillik 32,6 foizga o'sdi*), umumiy ovqatlanish (*23,9 foizga*) va ishlab chiqarish (*13,4 foizga*) yo'nalishlarida kuzatildi.


Shu bilan birga, 2025-yilning oktyabr-noyabr oylarida onlayn ish qidirish faolligi dinamikasi mavsumiy pasayish tendensiyasiga o'tdi² (*2-rasm*).

1-rasm. E'lon qilinayotgan bo'sh ish o'rinlari soni, mingta



Manba: Markaziy bankning ochiq ma'lumotlarga asoslangan hisob-kitoblari.


2-rasm. Ish qidirish bo'yicha so'rovlar sonining nisbiy dinamikasi indeksi



Manba: Google Trends ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

¹ Veb-skraping (web scraping) yordamida www.olx.uz saytida e'lon qilingan ish o'rinlari bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili

² So'nggi yillarda (2024 va 2025-yillar) Google Trends ma'lumotlari asosida shakllantirilgan onlayn ish qidirish faolligining oldingi yillarga nisbatan pastroq shakllanishi ish qidiruvchilarning muqobil manbalardan (ijtimoiy tarmoqlar, sohaga doir veb-saytlar, mobil ilovalar va boshqalardan) foydalanishi o'sganligi bilan bog'liq. Shunday bo'lsa-da, ushbu ko'rsatkichning tendensiyasi va uning dinamikasini o'zgarishiga e'tibor berish mehnat bozorida ish qidirish faolligi bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

3-rasm. Ish o'rinlari sonining o'zgarishi bo'yicha korxonalar kutilmalari, foizda

Manba: Markaziy bank.

Muqobil manbalar ham 2025-yilda ish qidirish faolligi barqarorlashganligini, biroq faol mehnat arizalari (rezyumelar) soni o'sishi 2024-yilga nisbatan sezilarli darajada past shakllanganligini ko'rsatmoqda³.

Umuman olganda, 2025-yilda mehnat bozorida ish qidirish faolligining barqarorlashuvi fonida biznes tomonidan ish o'rinlari taklifining sezilarli o'sishi mehnat bozorida talabning kuchayib borayotganligi hamda iqtisodiyotning kengayayotganligidan dalolat beradi. Bu esa qisqa muddatli oraliqda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi va talabning oshishi orqali inflyatsion bosimning saqlanib qolishini ko'rsatadi.

Mehnat bozorida kuzatilayotgan kengayish Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan iqtisodiy faollik bo'yicha so'rovnoma natijalarida ham o'z aksini topgan. Xususan, so'rovnoma natijalariga ko'ra, 2025-yilning oktyabr-dekabr oylarida ish o'rinlari sonini oshirish bilan bir qatorda joriy holatda saqlab qolishni kutayotgan biznes subyektlari ulushi mos ravishda 36,4 va 56,4 foizgacha ko'paygan (*III chorakda mos ravishda 32,9 va 54,5 foizni tashkil yetgan*).

³ 2025-yilda: <https://juma.hh.uz/article/34172>.

2024-yilda: <https://tashkent.hh.uz/article/33397>.


Shu bilan bir vaqtda ish o'rinlari sonini qisqartirishni kutayotgan respondentlar ulushining pasayishi kuzatilgan (*III chorakdagi 12,7 foizdan IV chorakda 7,2 foizgacha qisqargan, 3.a-rasm*).

Ta'kidlash joizki, ish o'rinlari sonini oshirishni rejalashtirgan tadbirkorlar ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan ham sezilarli o'sgan. Bunda asosan qurilish sohasida faoliyat yurituvchi respondentlarning 43,6 foizi (*o'tgan yilning mos davrida 35,3 foiz bo'lgan*), xizmatlar sohasidagilarning 38,5 (*26,7 foiz bo'lgan*) foizi va savdo sohasidagilarning 32,2 foizi (*24,4 foiz bo'lgan*) ish o'rinlarini oshirishlarini bildirishgan (*3.b-rasm*).

Mehnat bozorida ushbu dinamikalarining shakllanishi kelgusi oylarda yangi ish o'rinlari taklifining sezilarli o'sishi kutilayotganligini hamda mehnat bozorida talabning tarmoqlar kesimida ham faol kengayib borayotganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, iqtisodiyotda ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni sezilarli o'sishda davom etib, 2025-yilda 725,9 mingtani tashkil etdi (*2024-yilga nisbatan 5,4 foizga ko'p*). Bunda, asosan tadbirkorlar sonida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan bo'lsa (*10,9 foiz o'sish*), YTTlar sonining o'sish sur'atlari barqarorlashdi (*4-rasm*).


4-rasm. Ro'yxatdan o'tgan korxona, tashkilot va YATTlar soni, ming kishi



Manba: Milliy statistika va Soliq qo'mitasi.

Izoh: Dehqon va fermer xo'jaliklarisiz.

5-rasm. O'zbekiston bo'yicha Beverij egri chizig'i, foizda



Manba: Milliy statistika qo'mitasi, KQBV va ochiq manbalar ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Izoh: 2025-yilning IV choragi bo'yicha ma'lumotlar dastlabki hisob-kitoblar asosida keltirilgan.

2025-yilning IV choragida mehnat bozorida samaradorlikning yaxshilanishi qayd etildi. Ya'ni, iqtisodiyotda taklif etilayotgan ish o'rinlari va ushbu ish o'rinlariga bo'lgan talabning o'zaro muvofiqlashuvi⁴ kuzatildi (*O'zbekiston bo'yicha Beverij egri chizig'i chapga gorizontal siljigan, 5-rasm*). Natijada, mehnat bozorida bosimning barqarorlashuvi, ya'ni ishsizlikning pasayishi bilan bir vaqtda ishchi kuchiga bo'lgan talabning nisbatan qondirilishi sodir bo'ldi.

Ma'lumot uchun: Beverij egri chizig'i ishsizlik va bo'sh ish o'rinlari darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettirib, mehnat bozori holati va iqtisodiyot barqarorligi bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Jumladan: 1) Beverij egri chizig'ining chap tomon pastga siljishi mehnat bozori samaradorligi oshganini bildiradi; 2) egri chiziqning o'ng tomon yuqoriga siljishi mehnat bozori samaradorligi pasayganligidan dalolat beradi; 3) egri chiziqning chapga vertikal siljishi iqtisodiyot kengayish bosqichiga kirayotganligini, o'ngga vertikal siljishi esa iqtisodiyot tanazzul (retsessiya) bosqichiga o'tayotganligini anglatadi.



Ish haqi dinamikasi

2025-yilda iqtisodiyotda nominal va real ish haqining yuqori o'sishi kuzatildi. Xususan 2025-yil davomida nominal ish haqi 18,9 foizga o'sgan bo'lsa, real ish haqi o'sish sur'ati 9,3 foizni tashkil etdi (6-rasm). O'rtacha oylik ish haqi qariyb 6,4 mln so'mga teng bo'ldi.

Eng yuqori o'rtacha ish haqi moliya va sug'urta (17,6 mln. so'm) hamda axborot va kommunikatsiya (15,3 mln. so'm) xizmatlari yo'nalishlarida, eng past ish haqi esa qishloq xo'jaligi (3,4 mln. so'm) va ijtimoiy xizmatlar (4,1 mln. so'm) yo'nalishlarida saqlanib qoldi (7-rasm).

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda (2023-yildan keyingi davrda) aksariyat tarmoqlarda kuzatilgan ish haqi o'sish sur'atining pasayish tendensiyasi 2025-yil ikkinchi yarim yilligidan o'suvchi fazaga o'tdi. O'sishning tezlashishi asosan qishloq xo'jaligi va boshqa yo'nalishlarda sezilarli yuqorilagan bo'lsa, savdo va axborot xizmatlari sohalarida pasayish tendensiyasi saqlanib qoldi (*batafsil 1-ilovada*).

⁴ Bunda ish beruvchilar taklif etayotgan vakansiyalarga mos xodimlarni tezroq topishi, ish qidirayotganlarning o'z navbatida tezroq ishga joylashishi va natijada ishsizlik bilan bir vaqtda vakansiyalarning qisqarib borishi kuzatildi.

6-rasm. Iqtisodiyotda ish haqining o'sish sur'ati, foizda**7-rasm. Ayrim tarmoqlarda o'rtacha ish haqi, mln so'mda**

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

2025-yilning ikkinchi yarim yilligidan ish haqining o'suvchi fazaga o'tishi davlat sektorida ish haqining indeksatsiyalanishi bilan bog'liq. Bu, o'z navbatida, ayrim tarmoqlarda ish haqi o'sish sur'atining boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqoriroq shakllanishiga olib keldi. Xususan tashish va saqlash yo'nalishida faoliyat yurituvchi xodimlarning ish haqi nominal qiymatda 18,9 foizga (*real o'sish 9,3 foiz*), ijtimoiy sohalarda faoliyat yurituvchilarniki esa 17,4 foizga (*real o'sish 7,9 foiz*) o'sdi. Ish haqining eng kam o'sishi qurilish sohasida saqlanib qoldi, ushbu sohada faoliyat yurituvchi xodimlarning o'rtacha ish haqi nominal qiymatda yillik 9,1 foizga, real qiymatda 0,6 foizga o'sdi (7-rasm).

Hududlar kesimida, 2025-yilda real ish haqining eng yuqori o'sishi Namangan (13,1 foiz), Sirdaryo (11,5 foiz) va Jizzax viloyatlarida (11,1 foiz) kuzatilgan bo'lsa, eng past o'sish Andijon viloyati (4,6 foiz) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (6,2 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.


Umuman olganda, 2025-yilda ish haqi o'sish sur'atlarining yuqori shakllanishi aholi daromadlarining oshishi orqali ichki iste'mol va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi omillardan bo'ldi. Ish haqi o'sishining asosan tashish va saqlash, axborot texnologiyalari, moliya sohaslarida hamda davlat sektorida yuqori shakllanishi mehnat bozorida xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga nisbatan talabning ortib borayotganligini hamda ayrim ijtimoiy tarmoqlarni rag'batlantirilishi kuzatilayotganligini anglatadi.

Shu bilan birga, tarmoqlar va hududlar kesimida ish haqi o'sishi sur'atlarining sezilarli farqlanishi mehnat bozorida daromadlar tafovuti saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Biroq, ta'kidlash joizki, so'nggi davrlarda yuqori maosh to'lanadigan tarmoqlarda ish haqi o'sishi tendensiyasining pasayishi fonida ayrim nisbatan past maoshli sohalarda (*qishloq xo'jaligi va ijtimoiy xizmatlar*) o'sishning tezlashishi kuzatilmoqda (1-ilova). Bu esa, o'z navbatida, mehnat bozorida sekin bo'lsa-da tabaqalanishning pasayishi sodir bo'layotganligini anglatadi.


Pul o'tkazmalari dinamikasi va mehnat muhojirlari oqimi

2025-yilning IV choragida mehnat muhojirlari tomonidan O'zbekistonga jo'natilgan pul o'tkazmalari miqdorining mavsumiy pasayishi kuzatilgan bo'lsa-da, uning o'sish sur'atlari 2024-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada yuqori shakllandi. Xususan, 2025-yilning IV choragida pul o'tkazmalari miqdori o'tgan yilning mos davriga nisbatan 39,8 foizga o'sib, 5 mlrd dollarni tashkil etdi (2024-yilning mos davrida 17,0 foizga o'sib, 3,6 mlrd. dollarni tashkil etgan, 8-rasm).

8-rasm. Pul o'tkazmalari dinamikasi, mlrd doll.



9-rasm. Ayrim mintaqalardan pul o'tkazmalari o'sish sur'atining o'zgarishi, yillik, foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Izoh: **Bolting davlatlari mintaqasi** Latviya, Litva va Estoniya davlatlarini, **Yevropa mintaqasi** Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Polsha, Germaniya, Niderlandiya, Finlandiya, Ispaniya, Chexiya, Gruziya, Fransiya va Xorvatiya davlatlarini hamda **Osiyo mintaqasi** Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya, Isroil, Qirg'iziston, Birlashgan Arab Amirliklari, Tojikiston, Kipr va Yaponiya davlatlarini o'z ichiga oladi.

Pul o'tkazmalari miqdorining sezilarli o'sishi asosan Rossiya va Osiyo mintaqasidan jo'natilgan o'tkazmalarning yuqori o'sishi bilan bog'liq. Ushbu mintaqalardan yuborilgan o'tkazmalar hajmi IV chorakda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43 va 39 foizga o'sgan (9-rasm).

Shu bilan birga, mazkur chorakda AQSH va Boltiq davlatlaridan o'tkazmalar o'sish sur'atining barqarorlashuvi kuzatildi, Yevropa va boshqa mintaqalardan o'tkazmalar o'sishining pasayish tendensiyasi saqlanib qoldi.

Shuningdek, 2025-yilda aholining tashqi mobilligi va migratsiyasi (harakati) sezilarli o'sdi. Ushbu o'sish bir tomondan pul o'tkazmalari yuqori o'sishining turli mintaqalar kesimida diversifikatsiyalanishida, boshqa tomondan esa xorijga chiqib ketgan O'zbekiston fuqarolari sonining sezilarli o'sishida namoyon bo'lgan (*xorijga chiqib ketgan fuqarolar (asosan turizm va qarindoshlarni yo'qlash maqsadida) soni 2024-yilga nisbatan 22,2 foizga yoki 1,4 mln nafarga o'sgan*)⁵.


Ayrim davlatlarda makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligi hamda daromadlarning yuqori shakllanishi sharoitida ushbu davlatlarda migratsiya oqimining yuqori saqlanib qolishi kuzatilmoqda. Xususan, 2025-yilda Koreya Respublikasidagi O'zbekistonlik rezidentlar soni 2024-yilga nisbatan 4,3 foizga o'sib, 98,9 mingtani tashkil etdi (10-rasm).

Shu bilan birga, Turkiya respublikasida O'zbekiston fuqarolari uchun berilayotgan yashash ruxsatnomalari soni hamda doimiy bo'lmagan migrantlar oqimining sezilarli o'sishi kuzatildi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra ushbu davlatda O'zbekistonliklar uchun taqdim etilgan yashash ruxsatnomalari soni 10,7 foizga o'sib, 64,1 mingtani, doimiy bo'lmagan migrantlar soni esa 18,8 foizga o'sib, 13,7 mingtani tashkil etdi (11-rasm).

Umuman olgan, tashqi bozorlarda, ayniqsa migrantlarning salmoqli qismi faoliyat yurituvchi davlatlarda kuzatilayotgan so'nggi tendensiyalar va boshqa davlatlarda mehnat muhojirlariga bo'lgan talabning o'sishi hamda muhojirlar geografik tanlovining o'zgarib borishi mehnat migratsiyasi yo'nalishlarining sezilarli kengayishiga olib kelmoqda.


⁵ https://t.me/statistika_rasmiy/7073

10-rasm. Koreya Respublikasida O'zbekiston rezidentlari soni, ming kishi, foizda



Manba: Koreya immigratsiya xizmati.







11-rasm. O'zbekiston fuqarolari uchun Turkiyada yashash ruxsatnomalari va doimiy bo'lmagan migratsiya, ming






Izoh: Taqdim etilgan ruxsatnomalar soni 05.02.2026 holatiga.

Manba: Turkiya migratsiya boshqarmasi.

Tarmoqlar kesimida ish haqi o'sish sur'atining o'zgarish dinamikasi, foizda, o'tgan yilning mos davriga nisbatan





Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari.

Izoh: Trend komponentni ajratib olishda HP filterdan foydalanildi (HP filtr silliqlash parametri $\gamma = 1$). Trend dinamikasi tendensiyani tekisroq ko'rish maqsadida foydalanildi.

© O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026-yil



Hujjatning elektron versiyasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb-saytining "Tadqiqotlar" bo'limining "Tahliliy materiallar" kichik bo'limida joylashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti:
www.cbu.uz

Pul-kredit siyosati departamenti tomonidan tayyorlandi.

O'z taklif va e'tirozlaringizni quyidagi manzilga jo'natishingiz mumkin:

E-mail: sinogamov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-60-22